

OLIV TA'LIMDA ONA TILI FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI

Yigitaliyeva Shohsanamxon Isog'ali qizi

Qo'qon DPI o'qituvchisi

Yo'ldoshboyeva Oydinaxon Muhsinjon qizi

Qo'qon DPI talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8046065>

Annotatsiya. Ona tili mashg'ulotlari o'quvchida og'zaki va yozma nutqni mukammal egallash, til imkoniyatlaridan to'g'ri va unumli foydalanish madaniyatini tarbiyalaydi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, yozma nutq, til qonuniyatlari, grammatika, morfologiya, grammatik shakl, grammatik ma'no.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilanganidek barcha vazifalarni amalga oshirish nuqtai nazaridan metodika fani zimmasiga yanada mas'uliyatliroq vazifalar yuklanmoqda. Zero bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz”.

Ona tili mashg'ulotlari o'quvchida og'zaki va yozma nutqni mukammal egallash, til imkoniyatlaridan to'g'ri va unumli foydalanish madaniyatini tarbiyalaydi. Nutq madaniyati oddiy salom-alikdan tortib, kimga?, nimaga?, qachon?, qayerda?, qanday? so'zlashgacha bo'lgan sharqona odob sirlarini o'rgatadi.

Mazkur xususiyat oliy ta'lim talabalariga til hodisa va qonuniyatlarini o'rgatish jarayonida singdirib boriladi.

Adabiy til me'yorlari, grammatik bilim va malakalar, ularni amaliyotda qo'llash asosida egallanadi. Bu esa mustaqil fikrlash, fikr mahsulini to'g'ri, ravon, izchil, aniq, tushunarli ifodalash imkonini beradi. “Grammatika hamma va har qanday bilimga o'tiladigan bir ostona...” (A.M.Peshkovskiy) ekan, uni o'rganishning amaliy tomoniga ko'proq e'tibor berish nihoyatda foydali. Shundagina, “... grammatika insonni o'zini o'ziga tanitishdek o'ta zarur tarbiyalash vazifasini to'la-to'kis bajaradi”.

Grammatika til haqidagi fanning bir qismi, u morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so'z tarkibi va so'z turkumlari, sintaksisda so'z birikmasi va gap turlari o'rganiladi.

Talabalar “Morfologiya” bo'limini o'rganish jarayonida tilning adabiy me'yorlari, so'zning shu me'yorlar doirasida o'zgarishi va yasalishi (grammatik xususiyatlari); so'zni nutqda to'g'ri va o'rinli ishlatish tamoyillari bilan tanishdilar.

So'z turkumlari mavzusini o'rganishda so'zning tarkibi, yasalish jarayoni bilan tanishuv orqali o'quvchilar so'zning lug'aviy va grammatik xususiyatlarini kuzatish, farqlash, o'zaro qiyoslash, ularni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash ko'nikma va malakalarini egallaydilar, lug'at xazinasini boyitadilar. Hozirgi o'zbek orfografiyasidagi qoidalarning ko'pchiligi morfologik tamoyillarga asoslanganini hisobga olgan holda morfologik hodisalarni o'rganishda imlo masalasiga alohida ahamiyat berish lozimligini o'quvchilar ongiga yetkazish lozim bo'ladi.

Morfologiyani o'rganish talaba mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so'zning turli shakllarini gap tarkibida hamda bog'lanishli nutqda o'rinli ishlatish ko'nikmalarini

rivojlantiradi. Talabalarda muayyan nutqiy madaniyat shakllanadi, qiroat san'ati ko'nikmalari taraqqiy etadi.

O'zbek tilida so'z turkumlarini o'rganish umumta'lim, akademik litsey va kollejlarda o'rganilgan bilimlarga asoslangan holda olib borilishi, o'tilganlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

1. O'zbek tilida so'z turkumlari qanday guruhlarga ajratiladi?
2. Mustaqil so'z turkumlari qaysilar?
3. Grammatik shakllarni tasnif qiling.
4. Yordamchi so'z turkumlariga ta'rif bering.
5. Yordamchi so'z turkumlari mustaqil so'z turkumlaridan qanday farqlanadi?
6. So'zlarning turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar e'tiborga olinadi?

Bu savollarga javob izlash jarayonida o'quvchilar so'zlarning o'zgarishi, so'z yasalishidagi morfologik va sintaktik usullar, so'z tarkibi, ma'lum belgi va xususiyatlari bilan farqlanuvchi so'z turkumlari, so'zning turlanish va tuslanishi, grammatik shakl va grammatik ma'nolari ustida ishlaydilar, so'z turkumlari hamda ularning har biriga xos yasalish usullari bilan tanishadilar, gap qurish va matn yaratish ko'nikmalarini egallaydilar.

So'zning grammatik shakllari tizimi paradigma deyiladi. Paradigma morfologiya bo'limida o'rganiladi. Morfologiyada turkumlanish hodisasi, uyadosh so'zlarni o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu hodisani morfologiyada uyadoshlik paradigmaticasi deb atash mumkin.

Grammatik shakl so'zning u yoki bu grammatik vosita yordamida o'zgarishidir. Turli grammatik shakllar olish so'z o'zgarishi bo'lib, u leksik ma'no hamda kategoriya grammatik ma'nolar birligiga asoslanadi. So'zning grammatik shakllari tizimi morfologik paradigmatica (turlanish, tuslanish tartibi, o'zgarishlar yig'indisi) sanaladi. Ma'lumki, "mustaqil so'zlar ob'ektiv borliqdagi ma'lum bir predmet, belgi, harakat kabilarni anglatadi. Bu so'zning leksik ma'nosi... Grammatik ma'no so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, leksik ma'noga qo'shimcha tarzidagi ma'no bo'ladi hamda maxsus vositalar (masalan, qo'shimchalar) orqali ifodalanadi... Grammatik ma'no va grammatik shakl (so'z shakli) deganda, mustaqil so'zlargina nazarda tutiladi"1.

Grammatik ma'no quyidagicha ifodalanadi:

- o'zakka grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimcha qo'shish bilan: kitobim, kitobni, o'qiding, yaxshiroq;
- yordamchi so'zlar bilan: siz uchun, radio orqali, o'qidi-yu gapirmadi;
- so'zlarni takrorlash bilan: burro-burro gapirdi, katta-katta qurilishlar.

So'zlar leksik-semantik ma'nosi, grammatik belgilariga ko'ra guruhlarga bo'linadi.

Muayyan til doirasidagi so'zlarning umumiy grammatik ma'nolari hamda o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ma'lum guruhlarga ko'ra ma'lum guruhlarga ajratilishi so'z turkumlari deb yuritiladi. Mustaqil so'z turkumlari (ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh) lug'aviy ma'noga ega bo'lib, gapda ma'lum sintaktik vazifa bajaradigan o'ziga xos so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlardir.

Ot so'z turkumiga mansub so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, to'g'ri, yozish, lug'aviy ma'nolarini bilish hamda nutqda to'g'ri va o'z o'rnida qo'llay olishni o'rganish – mazkur mavzuning asosiy maqsadi bo'lishi lozim.

Otlarning lug'aviy ma'nolari, ularda uyadoshlik paradigmaticasi (guruhlash, turkumlash, qatorni davom ettirish) ustida ishlash davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra o'quvchining

kommunikativ savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Otlarda uyadoshlik hodisalarini o'rganish o'quvchi so'z boyligini oshirishning asosiy shartidir. Chunonchi, o'simlik, hayvon, idish – tovoq, taom, odam, parranda, va h.k. nomlarini guruhlariga ajratib, uyadoshlarini topib yozish kabi vazifalarni bajarish mumkin.

Berilgan daraxt nomlari: chinor, terak, tol; olma, olcha, bodom, kashnich, shivit, rayhon; ra'no, nargiz, gunafsha kabilarni guruhlariga ajratish va uyalarni davom ettirish kabi topshiriqlar o'quvchilarning tabiiyot fanidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, atamalarni qayta esga olishga, nutqda to'g'ri va o'z o'rnida qo'llashga o'rgatadi.

Amaliyot orqali nazariyani egallashning eng ishonchli vositalaridan biri til hodisalarini kuzatish, anglash, farqlash va taqlil qilishdir. Taqlilga tayanib, umumiy xulosalar chiqarish, mashg'ulotlarda so'zga ehtiyoj hosil qiluvchi o'quv topshiriqlari orqali ma'nodoshlar, uyadoshlar, zid ma'noli so'zlar ustida ishlash; ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish; gap qurish va matn yaratish. Bu texnologiyalar asosida ona tili darslarini uyushtirish ta'limning samarali vositalaridan sanaladi.

Reference:

1. Ashirboyev S. O'zbek tili grammatik qurilishining o'rganilish tarixidan (1875–1917-yillardagi rus turkologlarining asarlari asosida): Filol. fanlari nomzodi... dis. – Toshkent, 1972. – 17 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
3. Eltazarov J. So'z turkumlari haqidagi nazariyalar. – Samarqand, 1996.
4. Yigitaliyeva, S. (2023). KONSEPT VA UNING LINGVISTIKADAGI TALQINI. Scienceweb academic papers collection.
5. Yigitaliyeva, S. (2021). Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi. Scienceweb academic papers collection.
6. Yigitaliyeva, S. (2022). Hayrat-ul abror dostonida so'z ta'rifi. Scienceweb academic papers collection.
7. Yigitaliyeva, S. (2022). GLORIFICATION OF "GOODNESS" IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. Scienceweb academic papers collection.
8. Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. Mug'allim.
9. Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari 01-704. Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar.
10. Yigitaliyeva Shohsanam Isog'aliyevna. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarini o'rgatishning lingvistik konseptual asoslari. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali.132-135b
11. Yigitaliyeva Shohsanam Isog'ali qizi. HISTORY OF THE FORMATION OF COGNITIVE LINGUISTICS 302-306 JournalINX.A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal
12. Makhrmovna, B. D. (2023). Methodical Views of Nizamiddin Mahmudov. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 149-154.
13. Makhrmovna, B. D. (2023). SYMBOL OF LANGUAGE AND NATION. Conferencea, 135-140.
14. Makhrmovna, B. D. (2022). NIZOMIDDIN MAHMUDOV'S VIEWS ON MODERN LINGUISTICS. Gospodarka i Innowacje., 24, 312-
15. Boshmanova, D. (2023). Nizomiddin Mahmudovning lingvistik qarashlari. Qo'qon DPI.

Ilmiy habarlar.

16. Boshmanova D. (2023). HOZIRGI O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTIDA PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOVNING XIZMATLARI. Jurnal.namdu.uz 3 (3), 676-681

17. Yigitaliyeva Shohsanam Isog‘aliyevna. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil so‘z turkumlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. Hosted online from new York ,USA on yune 28th 16-20b

